



## BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA AQLLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH TAYYORGARLIGINING MAZMUNI, TUZILISHI VA ILMIY-NAZARIY JIHATI

**PhD., dotsent Fayzullayeva Dilnoza**

Samarqand davlat chat tillar instituti

Ikkinchi chet tillar kafedrası

**PhD., dotsent Abdimomunova Apal Omorbayevna**

Qirg‘iz milliy universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligini shakllantirish masalasi yoritiladi. Unda raqamli ta‘lim muhiti, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn simulyatorlar, bulutli texnologiyalar hamda interaktiv vositalarning lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv va faoliyatga oid komponentlari ko‘rib chiqilib, o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi zamonaviy ta‘lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida baholanadi. Tadqiqotda aqlli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli pedagogik kompetensiya, metodik moslashuvchanlik, tanqidiy tahlil va refleksiv yondashuv shakllangan bo‘lishi zarurligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** aqlli texnologiyalar, raqamli ta‘lim muhiti, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, innovatsion faoliyat, lingvistik kompetensiya, bo‘lajak o‘qituvchi.

**Kirish.** Aqlli texnologiyalarni ta‘lim tizimiga integratsiyalash jarayoni boshqaruvdan tortib individual ta‘lim trayektoriyalarini shakllantirishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ularning samarali joriy etilishi o‘quv jarayonini loyihalash va modellashtirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy axborot-ta‘lim muhiti ko‘p komponentli tizim sifatida shakllanib, o‘quv, ilmiy-tadqiqot hamda baholash jarayonlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi.

**Metodologiya.** Aqlli texnologiyalar talabalar lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, ularning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta‘lim yo‘nalishlarini yaratish hamda tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi.

**Natijalar.** Xususan, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn simulyatorlar va bulutli texnologiyalar yordamida talabalar o‘rtasidagi hamkorlik kuchayadi, interaktiv darslarning samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi turli axborot shakllarini (audio, vizual, matnli) uyg‘unlashtirib, ta‘lim jarayonini ko‘p qirrali va dinamik tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Muhokama.** Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion o‘quv vositalaridan foydalanish, didaktik vazifalarni tahlil qilish va zamonaviy metodlarni qo‘llash bo‘yicha yetarli tayyorgarlik shakllangan bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, raqamli pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda “tayyorgarlik” tushunchasi shaxsning kelajak kasbiy faoliyatiga moslashuvi va rivojlanishini ta‘minlovchi murakkab, ko‘p komponentli jarayon sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda nafaqat nazariy bilimlar, balki psixologik, axloqiy, kasbiy hamda g‘oyaviy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Demak, tayyorgarlikni faqat boshqaruvchi mexanizm



sifatida emas, balki shaxsning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi integrativ tizim sifatida qarash lozim.

N.A. Polovnikovaning tadqiqotlariga ko'ra, mustaqil kognitiv faoliyatga tayyorgarlik ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: birinchisi – zarur bilimlarni egallash (kognitiv mazmun), ikkinchisi – bilimlarni egallash metodlari (kognitiv usullar). Ushbu yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'zini-o'zi o'qitish va bilimlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

V.V. Serikov konsepsiyasida esa samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik shaxsiy sifatlarning uch asosiy guruhiga – kasbiy, axloqiy va psixologik tayyorgarlikka asoslanadi. Bu yondashuv shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorligini kompleks tarzda yoritadi.

Aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarlik innovatsion pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, o'qituvchining zamonaviy metodlarni qo'llash, o'quv jarayonini optimallashtirish va talaba faolligini oshirish salohiyatini belgilaydi. V.A. Slastenin ta'kidlashicha, o'qituvchining texnologik tayyorgarligi uning umumiy innovatsion faoliyatga tayyorgarligining muhim mezoni hisoblanadi. Shu bois, o'qituvchining aqlli texnologiyalar bilan samarali ishlashga tayyorligi uning innovatsion faoliyatga tayyorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladi.

Slastenin fikriga ko'ra, pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Nazariy tayyorgarlik o'qituvchining analitik, prognostik, proyektiv va reflektiv fikrlash qobiliyatlarida namoyon bo'ladi. Amaliy tayyorgarlik esa pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar tizimini o'z ichiga oladi.

L.M. Popov, B.F. Lomov va boshqa tadqiqotchilar bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadilar: kasbiy "Men-konsepsiya", motivatsiya, shaxsiy sifatlari va faoliyatga oid muhim xususiyatlar. L.Yu. Subbotina va T.A. Kulikova esa kasbiy tayyorgarlik strukturasi ijtimoiy-idrok, motivatsion-qadriyat, kognitiv-baholash, tashkiliy-shaxsiy hamda hissiy-sensor komponentlarni ajratib ko'rsatadilar.

M.V. Klarin o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy tajribasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'kidlab, innovatsion faoliyatga tayyorlikni belgilovchi bir qator muhim shartlarni ajratadi. Jumladan, o'qituvchi innovatsion pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, texnologiyalarni o'quv jarayonini boyituvchi vosita sifatida qabul qilishi, ularni qo'llash bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishi zarur. Bundan tashqari, texnologiyalarni tanqidiy tahlil qilish, o'z faoliyatini refleksiya qilish va doimiy ravishda takomillashtirib borish ham muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining yangi texnologiyalarni joriy etishga tayyorligi uning innovatsion faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu jarayonda moslashuvchanlik, yangilikka ochiqlik va shaxsiy motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'qituvchi texnologiyalarni o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, ularning o'quv faolligini oshirish va ta'lim jarayonini samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

**Xulosa** qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining aqlli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorgarligi motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlarining o'zaro uyg'unligiga asoslangan kompleks tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur komponentlarning izchil rivojlanishi o'qituvchining zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Днепроvская N.V., Янковская E.A., Шевтsoва I.V. Понятийные основы концепции смарт-образования // Открытое образование. – 2015. – № 6. – С. 43–51.



2. Robert I.V. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы и перспективы использования. – М.: ИИО РАО, 2010. – 140 с.
3. Polat E.S. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2008. – 272 с.
4. Ally M. Mobile Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. – Edmonton: AU Press, 2009. – 280 p.
5. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2015. – 528 p.
6. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2011. – 192 p.
7. Tikhomirova N.V. Smart education: new opportunities for modern education. – Moscow, 2014. – 156 p.
8. Ubaydulloyevna F. D. The importance of smart technologies in education of the future language teachers //Pedagogs. – 2023. – Т. 46. – №. 1. – С. 77-79.
9. Ubaydulloyevna F. D. Integrating smart technology in educating future foreign language teachers //Ustozlar uchun. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 56-58.
10. Обруева Г. Х. К вопросу об изучении во фразеологических единицах ономастических компонентов (на материале современного английского языка). *MATN LINGVISTIKASI (ilmiy to'plam)*. 2005.
11. Обруева Г. Х. О сдвиге имени собственного в разряд нарицательных слов во фразеологии английского языка. Вестник Челябинского государственного университета, (22), 2010. 100-102.
12. Обруева Г. Х. О внутрисистемных связях фразеологических единиц с ономастическим компонентом на материале английского языка (методика анализа). *www. research-journal.org*, 2012.
13. Обруева Г. Об опыте интерпретации выразительных возможностей фразеологических единиц с именами собственными. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 4 (1), 2019.
14. Обруева Г. Х. Инглиз тилидаги атоқли отларнинг фразеологик бирликлар структурасида ишлатилиши. *Хорижий филология*, 2, 2021. –Р. 66-69.
15. Obruyeva Gulchekhira Khamrokulovna The role of proverbs and idioms in the English language learning. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 4(4), 2025. -P. 152-159.
16. Obruyeva Gulchekhira Khamrokulovna "A semantic analysis proper nouns in comparison with the common noun." *Shokh Articles Library* 1.1 2026.
17. Obruyeva G., & Usmonova K. The usage of junction in Uzbek language as a presupposition trigger. *Student science research works*, 73. 2020.
18. Obruyeva G. Atoqli ot komponentli frazeologik birliklarning semantik maqomi. «*acta nuuz*», 1(1.4), 2024. –P. 329-332.
19. Obruyeva G. The role of proper names in the formation of English phraseological units. *Asian journal of scientific research and innovations*, 1(1), 2026. – P.185-189.